



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Umratqulova Adashoy Baxtiyor qizi

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15379271>

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish, ekologik tarbiyani amalga oshirish usullari, ekologik bilim berishning ahamiyati yoritilgan. Ekologik madaniyat olimlar fikriga ko'ra yoshlarning kundalik faoliyatda tabiat bilan bog'liqlik va xulq-atvor orqali namoyon bo'ladigan madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini yaratishidir. Ekologik madaniyat orqali sog'lom turmush muhitini yaratish rivojlanish, odamlar uchun rivojlanish ehtiyojlarini qondirish mumkin. Ekologik madaniy qadriyatlar bu tabiat bilan hamnafas yashash, ekotizmda ishlash, va rivojlanish mobaynida odamlar tomonidan yaratilgan qadriyatlardir.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik qadriyat, rivojlanish, sog'lom muhit yaratish, tabiat, tabiatni asrash.

Аннотация. В этой статье говорится о том, как развивать экологическую культуру у учащихся начальной школы, о том, как дать экологическое образование и о важности обучения экологическим знаниям. По мнению ученых, экологическая культура означает формирование культурных и социальных ценностей у молодых людей, которые помогают им жить в связи с природой в своей повседневной жизни через хорошее поведение. С помощью экологической культуры можно создать здоровую среду обитания и удовлетворить потребности людей в развитии. Ценности экологической культуры — это жизнь в гармонии с природой, работа в экологически безопасном режиме и ценности, созданные людьми в процессе развития.

Ключевые слова: экология, экологические знания, экологическая культура, экологические ценности, развитие, создание здоровой среды, природа, охрана природы.

Annotation. This article talks about how to develop ecological culture in primary school students, wants to give ecological education, and the importance of teaching ecological knowledge. According to scientists, ecological culture means creating cultural and social values in young people that help them live in connection with nature in their daily lives through good behaviour. Through ecological culture, it is possible to create a healthy living environment and meet people's needs for development. Ecological culture values are living in harmony with nature, working in an eco-friendly way, and values created by people during development.

Key words: ecology, ecological knowledge, ecological culture, ecological values, development, creating a healthy environment, nature, protecting nature.

KIRISH

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik usullarini tahlil qilish hamda



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



o'quvchilarda tabiatga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini oshirishni qanday metodlar yordamida amalga oshirish mumkinligini aniqlash va tahlil qilish. Pedagogik faoliyat jarayonida ushbu usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish.

ASOSIY QISM

Ekologiya nima? *Ekologiya* (yunoncha - "ekos"- "uy", "turar joy") organizmlar va ular bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida talqin qilinadi. Ekologik madaniyat – bu insonning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabati, tabiatni asrash va ekologik qadriyatlarni ongli ravishda tushunish hamda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishdir. Boshlang'ich sinfda bu madaniyatni shakllantirish, bolalarda ekologik bilimlarni va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy elementlari o'quvchilarga atrof-muhitni tushunishni o'rgatish, tabiatni asrashning axloqiy qadriyatlarini singdirish va ekologik masalalar bo'yicha bilimlarni mustahkamlashdir.

Ekologik madaniyat inson, tabiat va jamiyat munosabatlarini anglash natijasida vujudga kelib, u fikrlash usuli bo'lishi bilan bir qatorda, tabiiy ekologik muhit va yosh o'quvchilarni hamda insonlarni tabiatni asrash ruhida tarbiyalashdir. Ekologik madaniyat insonlarning atrof tabiiy muhitga bo'lgan ijobiy munosabati va mehrini ifodalaydi. Jamiyat tabiiy muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Bizga ma'lumki jamiyat jamoalardan tashkil topgan. Jamoa esa insonlardan. Bundan anglashiladiki, avvalo, har bir inson ekologik tarbiyaga ega bo'lishi lozim. Shunda barcha jamoalar tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanadi. Shu tariqa atrof-muhit bilan jamiyat uyg'unlikda yashaydi. Bunday turmush tarzi, ekologik turmush tarzi hisoblanib, barqaror rivojlanish uchun yo'l ochadi. Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatda katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida, o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Bularning barchasi insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmasligi oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlariga atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, turlarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyat hamda ekologik tarbiya uyg'un jamiyatda sog'lom muhit



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



yaratiladi. Shuning uchun ekologik tarbiya berishni maktabgacha bo'lgan davrdan boshlash lozim.

Pedagogik metodlar va yondashuvlar: Ekologik madaniyatni shakllantirishda ishlatiladigan asosiy pedagogik metodlar – interfaol darslar, ekologik tadbirlar, loyihalar, amaliy mashg'ulotlar va eksperimentlar bo'lishi mumkin. Bu usullar o'quvchilarni atrof-muhit masalalariga jalb qilishda samarali bo'ladi. Ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat bilim olishni, balki o'quvchilarda ekologik axloq, atrof-muhitga mas'uliyatli munosatni ham shakllantirish, bolalarda ekologik bilimlarni va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish usullari:

1. Faol o'qitish metodlari: ekologik masalalar bo'yicha faol o'qitish metodlari o'quvchilarga amaliy tajribalar orqali tabiatni asrashning ahamiyati ko'rsatadi. Eksperimentlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar o'zlari tabiat bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lishadi va ekologik bilimlarini mustahkamlaydilar.

2. Ekologik tadbirlar va loyihalar, ekologik tadbirlar (masalan, gullar ekish, chiqindilarni to'g'ri tashlash, jonli tabiat burchagi tashkil etish) kabi loyihalar orqali o'quvchilarga tabiatni asrashga oid mas'uliyatni singdirish mumkin. Guruhli ishlarda ekologik masalalar bo'yicha tadqiqotlar olib borish o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Masalan jonli tabiat burchagi tashkil etishda o'quvchilar jamoa bo'lib hamkorlikda ishlaydilar. Bu nafaqat o'quvchilarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi, balki darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga ham xizmat qiladi.

3. Interfaol metodlar va interfaol darslar yordamida o'quvchilarda ekologik masalalarga nisbatan qiziqish uyg'otishi mumkin. O'quvchilarga ekologik mavzularda rolli o'yinlar ("Dengizdagi baliqlar"), muammoni hal qilishga qaratilgan mashqlar ("Men ona tabiat uchun nima qila olishim mumkin?") va guruh ishlari ("biz tabiatni sevamiz" mavzusida rasmlar tanlovi o'tkazish) taqdim etish orqali ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

4. Multimediali va texnologiyalar (vediolar, smulyatsiyalar, onlayn resurslar)dan foydalanish yordamida ekologik masalalar haqida o'quvchilarga vizual va interaktiv materiallar ("Dengiz suvi nega ifloslandi?") mavzusidagi vedio ko'rgazma, "Men ekan nihol" vedioroliklari") taqdim etish o'quvchilarning bilimlarini yanada samarali shakllantiradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishning natijalari:

- o'quvchilarda tabiatga muhabbat tuyg'usi mustahkamlanadi;
- o'quvchilarning bilimlari ortadi;
- o'quvchilarda tabiatga bo'lgan hurmat va mas'uliyatli munosabat shakllanadi;



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»



mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

- ekologik axloqiy qadriyatlar haqida tushuncha hosil bo'ladi va mustahkamlanadi;

- o'quvchilarda o'zlariga va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi.

Muammolar va tavsiyalar:

- o'qituvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish bo'yicha malakasini oshirish zarur;

- o'qituvchilarga ekologik masalalar bo'yicha metodik yordamlarni kuchaytirish;

- o'qituvchilarni ekologik tadbirlarni o'tkazishda interfaol yondashuvlar bilan tanishtirish va ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni keng qo'llash;

- o'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish uchun zamonaviy ko'rgazmalardan foydalanish zarur.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ekologik tarbiya avvalo oila davrasida boshlanishi maqsadga muvofiq. Sababi: har bir bola o'z ota-onasidan ko'rgan ishni takrorlashga har doim harakat qiladi, kattalarga tadliq qilib, ulardan o'rnak oladi. Ota-onaning ekologik madaniyati yuksak bo'lsa farzand ilk ijobiy ekologik tarbiyani oladi. Keyingi davr maktabgacha yosh davri bo'lib, bu davrda har bir bolaga do'stlari va tarbiyachining ekologik tarbiyasi ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ushbu davrda bolalarni tabiat bilan tanishtirib, ularda ijobiy fikr uyg'otish maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining vazifasi qatoridan joy oladi. Boshlang'ich sinf maktab davrida avvalgi bilimlar mustahkamlanib, yangi bilimlar beriladi. Bu davrda o'quvchilar uchun turli xil rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali ona tabiat bilan yaqindan tanishib, yangi bilimlar hosil qilishadi. Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli, oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog' - u rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, bolalarning qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamova Ra'no Parpiyevna. "Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va ekologik xavfsizlikni oshirish". National University of Uzbekistan. Current Issues of social Science and Humanities. NUU Conference 2. DOI:24412/2181-1385-2023-2-582-586.



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



2. Dildora Begmirzayevna. “Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish omillari.” TMA Conference 2023.
3. Бекжанова, О., & Юсупалиходжаева, С. (2018). Этиологическая структура кандидоза полости рта в республике Узбекистан. *Стоматология*, 1(3 (72)), 13-17.
4. Hamidullaevna, Y. S., Esenovna, B. O., Turgunboevna, Y. N., & O'Gli, P. J. S. (2018). Study of the adhesive properties of *Candida* strains in an in vitro test using erythrocytes as target cells. *European science review*, (9-10-2), 219-222.
5. Юсупалиходжаева, С., & Бекжанова, О. (2018). Изучение биомаркеров протеолиза–антипротеолиза в развитии кандидозного стоматита полости рта. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (3 (102)), 114-117.
6. Makhmudjonov Z. Haqberdiyeva H. Suyunova Yo. Ganiev B. Bioecological characteristics of *Leucozonella corona*. *Research and education* ISSN: 2181-3191|volume1| issue8| 2022. <https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7358635>
7. Zafar M. Makhmudjonov Khayrullo B. Khakimov Nilufar A. Mekhmonova Shakhzoda R. Nasriddinova Seytveli S. Abdurashitov Biological peculiarities of *Leucozonella retteri*. *Baghdad Science Journal*. Irak. February, 2023 DOI: <https://dx.doi.org/10.21123/bsj.2023.7343>
8. Makhmudjonov Z, Abdurashitov S, Chutanov B. Distribution and lifestyle of *Leucozonella mesoleuca*. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*. SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241| <https://doi.org/10.36713/epra2016>
9. Мардонова, Р. О. Teaching Four Skills In The Primary Classroom Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. *Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 116.*
10. Djabbarova, S., Tadjieva, M., & Ra'no Mardonova, G. T. (2020). Problem Based Learning and Its Efficiency in Teaching Process. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 291-296.
11. Мардонова, Р. О. (2018). Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. *Гуманитарный трактат*, (21), 113-116.
12. Ochildievna, M. R. (2019). The Study of the Modification of Sounds in Coherent Speech in English and Uzbek Languages. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
13. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1287-1291.
14. Mardonova, R. O., & Turdieva, O. O. K. (2018). The Impact Of Tpr Method On Children's Vocabulary Learning Process. *Гуманитарный трактат*, (29), 122-123.
15. Pazilov A, Kudratov J, Makhmudzhonov Z. New type of terrestrial mollusc of *Archaica* (Gastropoda, Pulmonata, Hygromiidae) from Central Asia. *Int J Geogr Geol Environ* 2019; 1(1):01-02. DOI: 10.22271/27067483.2019.v1.i1a.1